
Yolg'iz keksalar, yolg'iz yashovchi va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkillandi

Toshloq tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining Katta yoshdagilar va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash sho''basi hamda tegishli tashkilotlar hamkorligida hududdagi yolg'iz keksalar, yolg'iz yashovchi va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 11- martdagi "O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan tibbiy ko'rikda 133 nafar fuqaro qatnashdi.

Tibbiy ko'rikda qatnashganlarning 35 nafarida gipertoniya, 15 nafarida bo'g'im kasalliklari va boshqa turdagi xastaliklar aniqlanib, ularga oilaviy shifokorlar tomonidan zarur tibbiy xizmatlar ko'rsatildi hamda bepul dori-darmonlar bilan ta'minlandi.

2024-05-15 20:31:33